

pasaytirmasdan uzoq muddat ishlashini hisoblab chiqish asoslarini o'rgatadi. Texnika fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyadan foydalanib muammolarga yechim topish ijobiy natija berib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Kimyo va qurilish materiallari sanoati mashina apparatlarining montaji hamda ekspluatatsiyasi". R.J.Tojiyev., R.R.Tojiyev., B.S. Ortiqaliyev. Farg'ona-2021
2. Shamsiyeva, M. O. Q. (2021). Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib, u ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. *Science and Education*, 2(12), 748-754.
3. Ортиқалиев, Б. С., & Тожиев, Р. Ж. (2021). Sifatli olovbardosh g 'isht ishlab chiqarishda xom ashyolarni saralash jarayonini tadqiq qilish. *Замонавий бино–иншоотларни ва уларнинг конструкцияларини лойиҳалаш, барпо этиш, реконструкция ва модернизация қилишнинг долзарб муаммолари*. (1-65), 199-203.

TARIX FANI DARSLARIDA AXBOROT VA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH XUSUSIDA

Raxmatov Xayrulla Bozorboevich

O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali

Qaxramonov Javohir Baxriddin o'g'li

O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali talabasi

xayrulla.raxmatov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning bugungi kunda ta'lim tizimida shiddat bilan kirib kelishi, tarix darslarida talabalarning faolligini oshirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, tarixiy tadqiqotlar sohasidagi axborotlashtirishning tezkor jarayonlari hamda ta'limga innovatsion o'qitish texnologiyalarini samarali tatbiq etish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, axborot, elektron darslik, kompyuter texnologiyalari, InterNET, mediapedagog, fasilator, tyutor moderator elektron kutubxona.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi, ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi doimiy o'zgarishda bo'lib, hozirgi shiddat bilan o'zgarayotgan va rivojlanayotgan dunyoga moslashishga harakat qilib kelmoqda. Zamonaviy ta'limni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni asosida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq

fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida qayd etildi.[1]

2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining parlamentga va xalqqa qilgan murojaatnomasida ilm-ma'rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratdilar. "Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.[2]

Darhaqiqat, O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'yar ekan, yangi davr fuqarosini kamol topishida, yangicha dunyoqarashni shakllantirishda tarixga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Zero, tarix qadriyatlarini qayta tiklash va rivojlantirishda, milliy o'zlikni anglash va yangi jamiyat qurishda ma'rifat quroli, ma'naviy-mafkuraviy mayoq sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni jalb etish hamda ta'lim tizimini axborotlashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Axborot texnologiyalardan o'quv-tarbiya jarayonida maqsadli foydalanish dars mashg'ulotlariga sezilarli natija beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim modelida pedagoglar fasilitator, tyutor mediapedagog, moderator kabi vazifalarni bajaradilar.[4]

O'qituvchining axborot-kommunikatsion va pedagogik texnologiyalarni darsda maqsadli qo'llashi, vaqtdan unumli foydalanish, mukammallik, ketma-ketlik, moslashuvchanlik, rivojlanish, keng ko'lamlilik, ko'rgazmalilik kabi imkoniyatlarni ochib berish bilan bir qatorda mavzuga oid o'quv materiallarini o'quvchilar to'laqonli o'zlashtirishlariga zamin yaratadi. O'qituvchi darsda ishtirok etayotgan har bir o'quvchining diqqatini mavzuga qarata oladi, ularning faolligini ta'minlaydi. Darsda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning qo'llanilishi elektron darsliklar, elektron qo'llanma, qo'shimcha manbalar, elektron topshiriqlar va multimediali ma'lumotlardan keng qamrovli foydalanish imkonini beradi.

Darhaqiqat, milliy mustaqilligimiz qo'lga kiritilishi tufayli boy va ko'hna tariximizni tiklab olish imkoniyatiga ega bo'ldik. Mashhur akademik olimimiz B.Ahmedovning ta'kidlashicha, "...Lekin boy berib qo'yilgan 130 yilning o'rnini to'ldirish oson bo'lmasa kerak. Buning uchun olimlarimiz, qo'yingki, barcha ziyolilar bir bo'lib ko'p mehnat qilishimizga to'g'ri keladi".[5]

Bugungi kunda fan sohasida, ilmiy tadqiqotlar sohasida amalga oshirilayotgan jarayonlarni kompyuter va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish mushkul. Kompyuter va u bilan bog'liq texnik imkoniyatlardan hozirda barcha sohalar qatorida ilmiy tadqiqotlar va ta'lim sohaslarida ham unumli foydalanilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, kompyuter va kompyuter texnologiyalari, axborot texnologiyalari va ulardan foydalanish fan va ta'limning tarkibiy qismlaridan biriga aylanib ulgurgan.

Ma'lumki, XX asrning 80-90-yillarida keng avj olgan axborotlashtirish jarayoni tarix faniga ham ta'sir ko'rsatdi. 90-yillarga kelib tarix fani tadqiqotlarida kompyuterlardan asosan ilmiy ishlarni terish va tahrirlash ishlarida foydalanila

boshlangan bo'lsa, keyinchalik manbalar bilan ishlashdagi yangicha uslublarda ham qo'llanila boshlandi.[6]

1986-yilda "Tarixchi va kompyuter" nomli xalqaro assotsiatsiya tuzildi va 1992 yilda uning tarkibiga bir qator MDH davlatlari tarixchilari ham kirdi.[6]

Shu davrda tarixiy tadqiqotlar va tarix fani tadqiqotlari uslublaridan biri sifatida paydo bo'lgan "tarixiy informatika" yuzaga kelib, kliometriya fanlari tarkibida shakllana boshladi. Ma'lumotlar bazasi hamda tarixiy manbalar tahlilining kompyuter texnologiyalariga bo'lgan qiziqish kuchayib bordi.

Umuman olganda bu davrda tarixiy informatika o'zining shakllanish bosqichidan qaror topish bosqichiga o'tdi. Keyingi yillarda tarixiy informatikada turli maktablar va turlicha yondashuvlarning differensiyasi va integratsiyasi jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, tarixiy asarlarning katta qismini yozma manbalar tashkil qiladi. Tarixiy yozma manbalarni o'rganishda xolislik, ilmiylik, qiyosiy tahlil, birlamchi manbaning ustuvorligini, kompleks yondashuv kabi prinsiplarga amal qilish talab etiladi.[6]

Ta'kidlash lozimki, Vatanimizda istiqlool sharofati bilan Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid asl manbalar keng iste'molga kiritildi. Hozirgi davrda olimlar chindan sodir bo'lgan haqiqatlarni bilishga ko'proq ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyojni qondirish uchun barcha tarixiy voqealarni ilmiy jihatdan asoslab berish, qaysi tarixiy fakt qaysi manbaning nechanchi sahifasidan olinganligigacha aniq ko'rsatish, ayni vaqtda ularni ko'pchilik yaxshi tushunadigan jonli so'z yordamida tahlil va talqin etib, qiziqarli shaklda kitobxon diliga yetkazib berish maqsadga muvofiqdir.[8]

Shunday paytda talaba elektron kutubxonaga ehtiyoj sezadi. Elektron kutubxona "InterNET" ning ajoyib imkoniyatlaridan biridir. Bu kutubxonaning elektron shaklidir. Kutubxona deganda odatda ko'z oldimizga kitoblar turgan uzundan uzoq kitob javonli katta xonalar keladi. Elektron kutubxonada "javonlar" vazifasini jildlar, kitoblar vazifasini InterNET sahifalar bajaradi. Bu kutubxona ma'lumotlari elektron ko'rinishda bo'ladi va kompyuterda joylashadi. Bu kutubxonadan foydalanish juda qulay. Bunda dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan elektron kutubxona ma'lumotlaridan foydalanish va zarur ma'lumot nusxasini ko'chirib olish mumkin.[7]

Axborot kutubxona markazlari oldida nafaqat elektron katalog, balki to'la matnli ma'lumot bazalarini yaratish, yig'ma elektron katalog orqali axborot resurslarini birlashtirish kabi vazifalar turibdi.

Zamonaviy texnologiyalar haqida so'z yuritar ekanmiz, yangilanayotgan O'zbekistonda ham bu sohada ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini axborotlashtirishni rivojlantirish maqsadida hukumatimiz tomonidan katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda.[7]

Talabaning innovatsion faoliyati-yangiliklarni tahlil qilish va baholash, kelgusidagi faoliyatining aniq maqsadini shakllantirish, uni amalga oshirish va to'g'rilash imkoniyatlaridir.

Shuni qayd etish lozimki, ta'lim tizimida sodir bo'layotgan shiddatli o'zgarishlar o'qituvchi-pedagoglardan talabalar ongida bugungi davr o'zgarishlariga hamohang ravishda ta'limga innovatsion o'qitish texnologiyalarini samarali tatbiq

etishni va uning yangicha modellarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bunda turli didaktik vositalardan o'z o'rnida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda tarix fani o'qituvchilari mediapedagog (media ta'limi beruvchi pedagog, texnika vositalarini boshqara olish, namoyish etish va muloqotga kirishish) va fasilitator (kompyuter texnologiyalari asosida ta'lim berishda pedagog fasilitator, ya'ni jarayonda asosiy yordamchi) vazifalarini bajarish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim

Dars jarayonida interfaol dasturiy vositalardan foydalanish, internetdagi mavjud havola, elektron xarita va virtual muzeylarga kirish o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantiradi. Virtual muzeylarning havolasi orqali o'quvchilar, respublikamizda joylashgan va jahondagi mashhur muzeylarga sayohat qilishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O'quvchilarning mavzuga oid egallagan bilimlari va kompetentligini baholash uchun ilm.uz sayti [11] orqali elektron tarzda "Tarix" fanidan mavzuli test savollarini onlayn tarzda yechish hamda o'quvchilarning test savoliga bergan javoblarining to'g'ri yoki xatoligini qisqa muddatda aniqlash imkoniyatini beradi. Onlayn tarzda test yechishning afzallik tomonlari shundaki, qog'oz va printerda nashr ishlariga mablag' sarflanmasligi bilan bir qatorda o'qituvchi test savollarining javobini tekshirishga vaqt ajratmaydi. Eng asosiysi o'quvchilar o'zlarining bilim saviyalariga o'zlari baho beradilar.[12]

Shunday ekan, bundan buyon tariximizni, tarixiy-ma'naviy merosimizni o'rganishning ahamiyati ortib boraveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "Boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy-intellektual merosimizni saqlash, ilmiy tahlil qilish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida soha mutaxassislariga, tegishli ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarga batafsil ma'lumotlar berib borish, buyuk alloma va mutafakkirlarimiz asarlarini dunyo hamjamiyati o'rtasida keng targ'ib etish, zamonaviy ilm-fan, ma'naviyat va amaliyot rivojida undan samarali foydalanish va kelgusi avlodlarga yetkazish" vazifalari qo'yilgan.[3]

Xulosa qilib aytganda, aynan tarixiy manba va yodgorliklar orqaligina tarixni yoritish – tarixiy ma'lumotlarni, dalillarni olish, ularni qiyosiy solishtirish va tarixiy umumlashtirish, bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar hamda voqea-hodisalarning sabablari va oqibatlarini, mazmun-mohiyatini tahlil qilish, tahlillar asosida esa ilmiy asoslangan xulosalar berish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga dars jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalar, ya'ni media ta'limi, mobil o'qitish tizimini joriy etilishi natijasida yoshlarni mustaqil ijodiy ishlash, erkin fikrlashga o'rgatish qobiliyatlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 8 fevral.

2. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil 25 yanvar. №19 (7490).-2-b

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori. “Ma‘rifat” gazetasi, 2017 yil 27 may, 42-son.

4. Пўлатова Д.Т. Таълим жараёнига электрон ахборот таълим ресурсларини жорий этишнинг педагогик шарт-шароитлари.// Замонавий таълим.-Т.: 2015.-№7.-11-16 б.

5. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O‘qituvchi, 1994.

6. Alimova D.A. Tarix fani metodologiyasi. T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018.

7. “Xalq ta’limi” jurnali. 2017 yil №5-son.

8. Qodirov P. Amir Temur siymosi. T.: O‘zbekiston, 2007.

9. Bozorboevich R. K. The Ethnic Structure of the Population of the Bukhara Emirate //International Journal on Integrated Education. – T. 4. – №. 12. – S. 8-12.

10. Bozorboevich R. K. Political and administrative structure of the emirate of bukhara in the late xix and early xx centuries on the population and ethnotoponyms //current research journal of history (2767-472X). – 2022. – T. 3. – №. 04. – S. 48-54.

11. Khaydarov S.A. Pedagogic and didactic possibilities of using. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020/Volume 24 Issue 8. Page 1475- 1479. (2020.15.03)

12. Юлдошев И.А. Ўқувчилар мустақил таълимини ташкил этишда мобил технологиялардан фойдаланиш.// Замонавий таълим.-Т.: 2017.-№12.-65-70 б.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARI FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILLARI

**dots. Sadullayev Hamidullo Mansurovich,
Hamidullayev Shoxjahon Hamdam o‘g‘li**

Farg‘ona politexnika instituti

sadullayev.ferpi@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim muassasalarida ishga mahkamachilik asosida yondoshishning salbiy oqibatlari tahlil qilinib, o‘qish va o‘rganishda talabalar faolligini oshirishning ayrim qirralari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: professional jasorat, byurokratik yondashuv, pedagogik faoliyat, salbiy omillar, o‘quv materialini tanlash, o‘qishga havas muhiti.

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ko‘plab yutiqlar orasida professional jasorat ta’lim berishdagi eng jiddiy va eng mushkul masalalarni hal etish kalitini topish harakati qayta jonlantirilishi o‘z dolzabligini yo‘qotgani yo‘q.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida o‘qishga qiziqish, faollik, mustaqil fikrlash kabi xislatlarni tarbiyalash, ularning ta’lim olishdagi faolliklariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan omillarni tadqiq etish va to‘g‘ri xulosalar, tavsiyalar ishlab chiqish uchun ham professional jasorat talab etiladi.